

**INGLIZ VA O‘ZBEK BADIY MATNIDA XUSHMUOMALALIKNING
AKSIOLOGIK XUSUSIYATINI OCHIB BERISHDA
TARJIMANING ROLI**

Adamboeva Nafisa Qodirberganovna

Farg‘ona Davlat Universiteti

Chet tillari fakulteti

Ingliz tili amaliy kursi kafedrası o‘qituvchisi

jasurbekdilmura@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada badiiy asar matni xushmuomalalikni amalga oshirish vositalarining matn toifalari salohiyatini faollashtirish bilan qanday bog‘liqligi, bu vositalarning semiotik roli va ularning mumkin bo‘lgan stilistik ta’siri haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.*

Kalit so‘zlar: *simmetriya, assimetrizatsiya, tarjima, semiosfera*

Abstract: *This article includes information on how the means of making the text of a work of art relate to the activation of the competence of text categories, the semiotic role of these means and their possible stylistic influence.*

Key words: *symmetry, assymetry, translation, semiosphere.*

Аннотация: *В данной статье содержится информация о том, как средства составления текста художественного произведения связаны с активацией компетенции текстовых категорий, семиотической роли этих средств и их возможном стилистическом влиянии.*

Ключевые слова: *симметрия, ассиметрия, перевод, семиосфера.*

Badiiy matn – bu ma’lum bir madaniyatda mustahkamlangan dunyoning semiotik modeli bo‘lgan semiosfera modeli. Shu bois matn maydoni dunyo modelidir. U quyi darajalarni yuqoriroqlarga bo‘ysundiruvchi tizim sifatida tashkil etilgan. Zero, matnning o‘zi borgan sari tarkibiy komponentlarga bo‘linadigan birlik bo‘lsa-da, semantik komponentlar iyerarxiyasi uni tashkil etish va tartiblilik shakllaridan biridir. Badiiy makon esa har qanday modellashtirish tizimi kabi tuzilgan. Shuningdek, matn nutqda yuzaga keladigan xushmuomalalikning muhim

belgilarini ham ko‘rsatadi. Bundan tashqari, kengaytirilgan nutq birligi sifatida badiiy asar matni xushmuomalalikni amalga oshirish vositalarining matn toifalari salohiyatini faollashtirish bilan qanday bog‘liqligi, bu vositalarning semiotik roli va ularning mumkin bo‘lgan stilistik ta‘siri haqidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi. Shu jumladan, xushmuomalalikni amalga oshirish orqali badiiy asarning semantik tarkibiy qismi boyitiladi, uning badiiy birligiga, urg‘ularning yetarli darajada joylashishiga hissa qo‘shadi va pirovardida, matn tizimida ma‘lum bir quyi tizimni shakllantiradi: ing.: «*He sees that man — you know, the one who drove to it — he sees him everywhere*». «*That’s interesting*», *Mr. Muckery said automatically* (G. Greene); o‘zb.: – *Siz– yaxshilarim, bu qisqa o‘ylashingiz bilan o‘z oyog‘ingizga bolta urib, yana qipchoqlarga qaram bo‘lasiz* (A.Qodiriy. O‘tkan kunlar).

Shuni alohida ta‘kidlash zarurki, matndagi xushmuomalalikning aksiologik xususiyatini ochib berishda tarjimaning roli ham kattadir. So‘nggi vaqtlarda tarjimashunoslar ham aksiologiyaga qiziqish bildirib boshladi [1, 141 c].

Aksiologik tarjimashunoslikning o‘rganish obyekti – matn tarjimasining sifati, yuqori sifatli tarjimini belgilovchi aksiologik parametrlarni izlashdan iborat bo‘ldi. Shu bois, tarjimaning aksiologik muammolari orasida quyidagilar ajratilib olindi:

- 1) matn tarjimasi sifatini tavsiflovchi aksiologik parametrlarni aniqlash;
- 2) yuqori sifatli tarjimaga erishishda tillar va madaniyatlarning simmetriya/assimetrizatsiya jarayonlari, tillararo va madaniyatlararo o‘zaro ta‘sirlarning o‘zaro bog‘liqligi.
- 3) garmoniyani tarjimaning aksiologik dominant sifatida tavsiflash va uning boshqa mezonlar orasidagi o‘rnini belgilash;
- 4) tarjima sifatini baholashda subyektiv/obyektiv omillarning rolini aniqlash;
- 5) yuqori sifatli matn tarjimasining yashirin/aniq, diskursiv/nodiskursiv, lingvistik/kommunikativ-funksional belgilarini ko‘rib chiqish [3].

M.V. Ignatovich tarjimashunoslikdagi aksiologik parametrlarni «muallif niyatlari, pragmatikasi, assotsiativ aloqalari, <...> va matnlararo inklyuziyalarning madaniy o‘ziga xosligi tahlili» kabi belgilaydi va ushbu parametrlarni «sifatli

tarjimaning kaliti» [2, C.183.] deb ta’riflaydi. V.N. Karpuxina ham shunday aksiologik parametrlardan foydalanib, tarjima matniga baho beradi: 1) «manba matn strukturasi saqlab qolish/o‘zgartirish <...>»; 2) «manba matnning pragmatik salohiyatini saqlash/o‘zgartirish» [4, C. 183].

Xushmuomalalikni tarjima qilish bu hodisaga murakkab talqin orqali yondashishni talab qiladi. Tarjimon ushbu parametrlardan yaxshi xabardor bo‘lishi kerak. Bu jarayon tarjimaning muvaffaqiyatli muloqotni ta’minlaydigan yuqori sifatli tarjima matniga erishish vazifasini oldindan belgilab beradi. Keling, bir qancha misollar tahliliga to‘xtalsak:

1) Ing.: «*It’s a lady’s voice, a fine lady’s,*» Mr. Higginbotham, who had called him, jeered. (Martin Eden/ Jack London; P. 88.)

o‘zb.: – *Seni bir xonim so‘rayapti. Ovozidan aslzoda xonimga o‘xshaydi,* – dedi istehzo bilan mister Xigginbotam. (Martin Iden/Jek London; B.85.)

Bu gapda tarjimon o‘zining lisoniy xushmuomalaligiga tayangan, ya’ni «*a lady’s voice*»ni «*xonimga xos ovoz*»deb emas «*aslzoda xonim*» tarzida tarjima qilgan, garchi ingliz tilida *aslzoda xonim – noblewoman/ aristocrat lady/gentlewoman* tarzida ishlatilsa ham.

2) ing.: – «*We have other plans for you, Ruth, dear, your father and I...*» (Martin Eden/ Jack London; P. 88.)

o‘zb.: – *Ruf, tasaddug‘im, otang ikkovimizning sen to‘g‘ringda boshqa rejalarimiz bor...* (Martin Iden/Jek London; B.273.)

Bu gapda ham tarjimon o‘zbek tilining xushmuomalalik kategoriyasi aksiologik jihatdan boy ekanligini yaqqol ko‘rsatgan. Zero, ingliz tilidagi «*dear*» so‘zi «*qadrli, aziz, hurmatli, muhtaram*» deb tarjima qilinsada, bu gapda «*tasaddug*» tarzida amalga oshirilgan.

Boshqacha qilib aytganda, tarjimonning lingvistik kompetensiyasi xushmuomalalik kategoriya hisobiga kengaytirilishi kerak, bu esa tegishli tarjima eruditsiyasini shakllantiradi va tarjima matnini qabul qiluvchi lingvomadaniy, aksiolingvistik muhitga integratsiyalashuvi uchun shart-sharoitlarni tayyorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Карпухина, В.Н. Аксиологические стратегии текстопорождения и интерпретации текста. – Барнаул: Изд-во Алт. унта, 2008. – 141 с; Игнатович М.В. Перевод культурно-специфичных интертекстуальных включений: телео-аксиологический подход (на материале романов Терри Пратчетта). - <http://cyberleninka.ru/article/n/perevod-kulturnospetsifichnyh-intertekstualnyh-vklyucheniya-teleo-aksiologicheskoy-podhod-na-materiale-romanov-terri-pratchetta>; Иванова О.А., Криворучко А.И., Погорелая Н.Г. аксиологическая парадигма перевода: к вопросу о субъективных и объективных критериях оценки качества перевода // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – № 1-1.; URL: <http://www.science-education.ru/ru/article/view?id=19527>; Криворучко А.И. Аксиологические параметры переводческой деятельности. //Вестник ПНИПУ. Проблемы языкознания и педагогики. 2015. №3 (13). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/aksiologicheskie-parametry-perevodcheskoy-deyatelnosti>.
2. Игнатович М.В. Перевод культурно-специфичных интертекстуальных включений: телео-аксиологический подход (на материале романов Терри Пратчетта).- С. 183. - <http://cyberleninka.ru/article/n/perevod-kulturnospetsifichnyh-intertekstualnyh-vklyucheniya-teleo-aksiologicheskoy-podhod-na-materiale-romanov-terri-pratchetta>.
3. Иванова О.А., Криворучко А.И., Погорелая Н.Г. Аксиологическая парадигма перевода: к вопросу о субъективных и объективных критериях оценки качества перевода // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – № 1-1.; URL: <http://www.science-education.ru/ru/article/view?id=19527>.
4. Игнатович М.В. Перевод культурно-специфичных интертекстуальных включений: телео-аксиологический подход (на материале романов Терри Пратчетта).- С.183. – <http://cyberleninka.ru/article/n/perevod-kulturnospetsifichnyh-intertekstualnyh-vklyucheniya-teleo-aksiologicheskoy-podhod-na-materiale-romanov-terri-pratchetta>.